

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYAR VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI



60230100- Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)  
(TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA)  
TA'LIM YO'NALISHIGA 2023G'2024 O'QUV YILI  
UCHUN SUHBAT ASOSIDA KIRISH IMTIHONLARIGA

## D A S T U R

Andijon-2023

Dastur Andijon davlat universiteti o'quv - uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 - yil "28"iyundagi "10" sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:**

**Kafedra mudiri:**

PhD. Z.A.Mamajonov

**Kafedra a'zolari:**

PhD. S.Islomova  
B.Mo'minov,  
Katta o'qituvchi



# DASTRUR

**KIRISH**

Maskur dastur "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oly ta'lim muassasalarining bakalaviriat ta'lim yo'naliishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi 17 sonli Qaroriga asoslangan.

**Suhbat asosida o'qishga qabul qilish sinovlarida foydalilanildigan fan asoslari**

**Adabiyot nazariyasi va adabiyot tarixi**

**Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida**

Adabiyot nazariyasi fan sifatida. San'at estetik hodisa. San'ating tabiatи va turlari. San'atda inson ruhiyati masalasi. Badiiy adabiyot san'atning bir turi sifatida. Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o'mni. Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbushunoslik, adabiy jarayon, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari bilan aloqasi.

**Adabiyotning spyetsifikasi**

Adabiyotning o'ziga xosligining asosiy byelgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning o'zarо munosabati

**Adabiy asar tabiatи.**

Adabiy asar tabiatи. Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlар; adabiyotda shakl va mazmun uyg'unligi badiiylikning eng muhim myezoni sifatida; poetik shakning o'zgarib borishi; shaklbozlik muammosi.

**Badiiy asar tarkibi**

Badiiy asarning shakli va mazmuniga oid poetik unsurlar masalasi; badiiy sujuyet tizim sifatida; sujujetning badiiy asar takribidagi poetik funktsiyasi; badiiy asar kompozitsiyasi va uning elyementlari.

**Badiiy asarda mavzu va g'oya tasnifi**

Badiiy adabiyotdagi umrboqiy va o'tkinchi, tarixiy va zamonaviy mavzular masalasi; mavzuning mohiyati va dolzarbliji; badiiy asar mavzusi va istye'dod darajasi; mavzular tasnifiga doir; badiiy g'oya va ijtimoiy g'oyaning o'ziga xos qirralari; mavzushunoslik; mavzu, g'oya, obraz va estyetik idyeal munosabati.

**Badiiy tafakkur va badiiy obraz**

Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi talqini; obrazlarning turli nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylig va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va dyetal; obraz va so'z;

Badiiy obraz spetsifikasi. Obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz g'enyezisi - maydonga kyelish omillari xususida. Obraz va xronotop; sujuyet va obraz munosabati.

**Badiiy asar spetsifikasi. Poetik nutq xususida**

Badiiy asarda insonning ichki olami tasviri; adabiyot va san'atda ruhiyat masalasi; inson his-tuyg'ulari va kyechinmalarining badiiy tasviri. Adabiy asar va badiiy asar tushunchasi.

Poetik nutq va badiiy asar tili masalasi. Poetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; Nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; diologik va monologik nutq. Poetik nutqda emotsiyonallik; nasriy asar ritmi. Badiiy nutq myezoni.

#### **Adabi tur va janrlar poetikasi**

Adabi tur: genezisi va tasnifi. Adabi tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabi tur va janrlarning paydo bo'lish masalasi. Adabi janrga xos byelgilar. Epik tafakkur spyetsifikasi. Lirika va insонning ruhiyatni, his-tuyg'ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirkasi xususida

#### **Ijodiy metod va uslub**

Ijodiy myetod va adabi oqimlar. Romantizm va uning turlari. Romantizmda orzu-umidlar yoki tasavvurlar aks etishi. Uslub va ijodkor. Kinoyaviy uslubga xos byelgilar. Badiiy uslub va badiiy til. Uslublar xilm-a-xilligi. Uslubdagi individuallik.

**Qadimgi og'zaki va yozma yodgorliklar. O'rxun-Enasoy yodgorliklari. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'atit-turk" asari**

O'zbek adabiyyoti tarixi fanining maqsad va vazifalari, taraqqiyot bosqichlari. Qadimgi og'zaki va yozma yodgorliklar: afsonalar, qissalar, qo'shiqlar. "Avesta" – nodir yozma yodgorlik sifatida. O'rxun-Enasoy yodgorliklari haqida. X-XIII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot, ilm-fan taraqqiyoti. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari.

#### **Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi. "QUTADG'U BILIG" asari**

Yusuf Xos Hojib haqida ma'lumot. "Qutadg'u bilig" asarining yaratilishi, o'rganilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Asarda siyosiy-ijtimoiy qarashlari, ilm-ma'rifat, odob-axloq masalalari. Asarning qisqacha mazmuni, obrazlar tizimi, ularda ifodalungan ramziylik "Qutadg'u bilig"ning ma'rifiy va badiiy ahamiyati

#### **Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodi. «hibatul haqoyiq» dostoni**

Ahmad Yugnakiy haqida. Adibning yashagan davri haqidagi bahslar. «Hibatul haqoyiq» dostoni. Asarning topilishi va o'rganilishi. Dostonning tuzilishi. Ilm-ma'rifat masalalari, Axloq va odob masalalari. Dostonning badiiy xususiyatlari va tili.

#### **Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi. "devoni hikmat"**

A.Yassaviyning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot. "Devoni hikmat"dagi hikmatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. A.Yassaviy ijodining o'ziga xos davomchisi Sulaymon Boqir'oniy ijodi haqida

#### **Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy xayoti va ijodi**

Chingizzon istilosini davri adabiyyoti. Rabg'uziy haqida. Uning adabiyy faoliyati. «Qisassi Rabg'uziy»-adabiyy asari. «Qisassi Rabg'uziy»dagi hikoyatlar va ularning mavzulari.

#### **Lutfiyning ijodiy faoliyati**

Lutfiy va Navoiy munosabatlari. Lutfiy lirkasi, janr xususiyatlari. Lutfiy she'riyatida badiiy mahorati. Lutfiyga nisbat berilgan asarlar. Husayniy lirkasining manbalari. "Risola" asari va uning mundarijasi. Husayniy lirkasining badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

#### **Alisher Navoiy ijodiy merosi**

Alisher Navoiy ijodiy merosi. Navoiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Shoiring hayoti va ijodiy faoliyati aks etgan manbalari. Navoiy she'riyati. Devonlarining janr xususiyatlari. Badiiy mahorati. Navoiyning "Xamsa" asari va uning badiiyati.

#### **Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va adabiyy merosi va uning o'rganilishi. Bobur she'riyati, devonlari, badiiy mahorati.**

Boburning hayoti va ilmiy-adabiyy merosi. Bobur hayoti va faoliyatini dunyo miqyosida o'rganilishi. Bobur shaxsi haqida bildirilgan fikrlar va uning dunyo va o'zbek adabiyyotiga qo'shganhissasi haqida. "Risolai aruz", "Validiya" va "Mubayin" asarlarining adabiyy qimmati. "Boburnoma" – qomusiy asar

#### **Buxoro adabiyy muhit. Tazkiravanislik. Hasanxoja Nisoriy "Muzakkirul ahbob" asari. Xoja hayoti va ijodi.**

Buxoro adabiyy muhit. Tazkiravanislik, Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkirul ahbob" asari. Xoja hayoti va ijodi manbalari. Xojaning adabiyy merosi. Xoja adabiyy merosida kichik hikoyachilik takomili. "Gulzor" va "Miftahul adl"

#### **Mashrab ijodiy merosi. "Qissai Mashrab" asari**

Boborahim Mashrab hayoti va ijodi manbalari. Shoir tarjimai holi va ijodiy faoliyatini yorishda "Qissai Mashrab"ning o'mi. Boborahim Mashrab she'riyati. Mashrab she'riyatida ishq talqini

#### **So'fi Olloyor hayoti va ijodi. "Sabotul ojizin" asarida ma'rify masalalar**

So'fi Olloyor hayoti va ijodi manbalari. So'fi Olloyor hayot yo'li va uning o'rganilishi. So'fi Olloyorning adabiyy – ilmiy merosi. So'fi Olloyorning tasavvufiy qarashlari va ularning asarlarida aks etishi "Sabotul ojizin" asari. Noyob badiiyat namunasasi

#### **Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. She'riyati, badiiy mahorati**

Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. Shoiring adabiyy merosi. Ogahiy – tarixnavis. Ogahiyning tarjimonlik faoliyati

#### **Qo'qon xonligidagi madaniy hayot, adabiyy muhit. Amiriy hayoti va ijodi manbalari**

Qo'qon adabiyy muhit va uning o'ziga xos xususiyatlari. Amir Umarxon hukmronligi davri Qo'qon adabiymuhitining eng gullagan davri sifatida. Amiriy hayoti va adabiyy faoliyati. Amiriy she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari

#### **Xojanazar Huvaydo hayoti va ijodi. Lirik merosi. Gulhaniy hayoti va ijodi**

Huvaydo hayoti va ijodi manbalari. Shoiring adabiyy merosi. Huvaydo dunyoqarashi va she'riy mahorati. Gulxaniy hayoti va ijodi. Huvaydoning "Rohati dil" dostoni va uning adabiyyot tarixidagi o'mi. "Zarbulmasal" nusxalar. Asarning o'ziga xos syujet kompozitsiyasi va uslubi. "Zarbulmasal" asari tahlili, uning badiiyati. Gulxaniy adabiyy merosi

#### **Uvaysiy, Nodira, hamda Muhammad Alixon (Xon) hayoti va ijodi, adabiyy merosi**

Uvaysiy hayoti va ijodi. Uvaysiy lirkasi va uning o'ziga xos jihatlari. Uvaysiyning hayot yo'li va adabiyy faoliyati. Uvaysiy lirkasining o'ziga xos jihatlari. Uvaysiy chistonlari va dostonlari. Nodira hayoti va

ijodi. Nodira adabiy merosi. Nodira lirkasining janr xususiyatlari. G`azallarning g`oyaviy –badiiy o`ziga xos ekanligi. Muhammad Alixon hayoti va ijodi

#### ADABIYOT NAZARIYASI VA ADABIYOT TARIXI FANI BO`YICHA:

№	SAVOLLAR
1	Badiiy obraz darajalari, gyenyezisi, tasnifi va maydonga kyelish omillari
2	Sujyet, motiv va mavzu munosabati
3	Badiiy asar tili va poetik nutq masalasi
4	Nasriy asarda ritm. Saj' haqida
5	Roman janri imkoniyatlari
6	Shye'riy san'atlar: ma'naviy va lafziy san'atlar
7	Adabiy-tarixiy jarayonda ar'an'a va yangilanish, Badiiy adabiyotda milliylik va umuminsoniylik
8	Ijodkor laboratoriysi muammolari, Muallif, badiiy asar va jamiyat munosabati
9	Sharq va G`arb adabiy nazariy tafakkuri tarixidan
10	Badiiy asar g`oyasi, mavzusi va estyetik idyeal
11	Ezik tur; qissa gyenyezisi
12	Lirik tur; shye'rshunoslik
13	Dramatik tur, tragediya va tragikomyediya
14	Badiiy asar pafosi va estyetik idyeal
15	Hajviy tafakkur tabiat, satira va humor
16	Ijodiy myetod ustidagi bahslar
17	Jahon adabiyotidagi oqim va metodlar
18	"Adabiyot nazariyasi" o'quv kursi: maqsad va vazifalari, manbalari.
19	"Adabiyot nazariyasi" atamasi haqida
20	Adabiyot nazariyasingning adabiyotshunoslik fani tizimidagi o'mni
21	Adabiyot nazariyasi fani bo'lmlari
22	"Adabiyot nadur?" muammozi haqida
23	Adabiyotning mohiyati haqida mavjud ilmiy konsyektsiyalar
24	Adabiyotning ikkiyoqlama mohiyati
25	Adabiyotning ijtimoiy funksiyalari
26	Adabiy asar tushunchasi
27	Adabiy asar nutqiy janr sifatida.
28	Adabiy asar – badiiy kommunikatsiya vositasi.
29	Adabiy asar – sistyem butunlik sifatida
30	"Adabiy asar tarkibi" tushunchasi
31	Tizim sifatida o'rganishda tarkib asosi masalasi
32	Shaklning uch aspyekti haqida.
33	Badiiy mazmun haqida
34	Badiiy voqyelik tushunchasi
35	"Tyema" tushunchasi
36	Mavzu va problyema
37	Mavzuning bir butunligi
38	Badiiy g`oya
39	Obrazli tafakkur va abstrakt tafakkur haqida
40	Badiiy tafakkur va ilmiy tafakkur
41	Badiiy obraz san'at va adabiyotning tafakkur shakli sifatida
42	Obrazli tafakkur – san'at va adabiyotning speytsifik xususiyati
43	So'z vositasida yaratilgan obraz: "ikkilamchi obraz", "ikkilamchi byelgilar sistyemasi"

	tushunchalari.
44	So'z vositasida yaratilgan obrazning nomoddiy tabiatи
45	Individuallashtirilgan umumlashma
46	Ratsional va emotsiyal birlik
47	Obbyektiv va subbyektiv birlik: obraz matyeriali masalasi
48	Myetaforiklik. Assotsiativlik. Ko'pma'nolilik.
49	"Poetik nutq" tushunchasi haqida
50	Badiiy nutqning boshqa nutq tiplari bilan munosabati
51	Badiiy nutq sathlari
52	Badiiy nutq shakllari
53	Adabiy turlarni tasniflashning o'zgacha ko'rinishlari
54	Tizim sifatida o'rganishda tarkib asosi masalasi.
55	Badiiy voqyelik tushunchasi
56	Badiiy mazmun haqida
57	Hayotni badiiy aks ettrishning ikki tamoyili: ryealistik va noryealistik ijod tiplari
58	Myetod va uslub tushunchalari.
59	Adabiy jarayon
60	Badiiy adabiyot taraqqiyotining ichki va tashqi omillari
61	Vorisiylik. An'ana va yangilik
62	Adabiy jarayonning davrlashtirish prinsiplari
63	Adabiy jarayonning davriy bo'linishi: adabiy asr, adabiy avlod
64	Badiiy tafakkur va ilmiy tafakkur
65	Badiiy obraz turlari
66	Badiiy psixologizm nima?
67	O'zbek adabiyoti tarixining maqsad va vazifasi nima?
68	O'zbek mumtoz adabiyoti deganda nimani tushunasiz?
69	Nima uchun qissalar yozma manbalarda yetib kelgan bo'lsa-da, og'zaki adabiy yodgorlik sanaladi?
70	Turk hoqonligi tariximizning qaysi davriga oid?
71	Fors-tojik adabiyoti vakillaridan kimlarni bilasiz?
72	Xamsachilik maktabining asoschisi kim?
73	Devonu lugotit-turk" qanday asar?
74	"Avesto" haqida nimalarni bilasiz?
75	Yusuf Xos Hojib va uning faoliyati haqida qaysi manbalarda qanday ma'lumotlar ma'lum?
76	"Qutadg'u bilig" nima degani? Nega adib asarini shu nom bilan atagan? Asar muqaddimasida asarning yaratilishi badiiyiti bilan bog'liq qanday fikrlar aytildi?
77	"Qutadg'u bilig" nomining ma'nosi nima? Asardagi asosiy obrazlar qanday ramziy mazmunga ega?
78	Ahmad Yugnakiy kim? Adib bilan bog'liq bahslar
79	Ahmad Yugnakiy haqda qaysi manbalarda ma'lumot bor?
80	Navoiy Yugnakiy haqida qanday ma'lumot bergan?
81	"Hibatul haqqoyiq" qanday asar?
82	"Hibatul haqqoyiq" asarida ilm, odob-axloq haqida qanday fikrlar bildirilgan?
83	Yassaviy haqida qaysi manbalarda ma'lumot kyeltirilgan?
84	Yassaviy «Hikmatlar»ining mohiyati nimada?
85	Chyet ellarda Yassaviy ijodining o'rganilishi haqida nimalar bilasiz?
86	Yassaviy asos solgan tasavvuf tariqati qaysi?
87	Xalq qo'shiqlari va Yassaviy hikmatlari orasida qanday o'xshashlik mavjud?
88	S.Boqirg'oniy adabiy merosi qanday asarlardan iborat?

89	Mo'g'ul istilosи haqida tarixdan nimalarni bilasiz? Bu davrga oid qanday manbalarni bilasiz?
90	Mo'g'ul istilosи davrida yozma adabiyot qay holatda bo'lди? Bu davrni aks ettiruvchi qanday badiiy asarlarni o'qigansiz?
91	Rabg'uziy kim? Uning ijodi haqida nimalar bilasiz?
92	"Qissasi Rabg'uziy" qanday asar? Bu asar uchun qaysi manbalar asos bo'lgan
93	Rabg'uziy she'riyati haqida gapiring.
94	"Qissasi Rabg'uziy" asaridagi qissalar mohiyati nimada? Payg'ambarlar bilan bog'liq hikoyatlardan misol keltiring.
95	«Muhabbatnoma»ning nusxalari va janr xususiyatlari haqida ma'lumot bering. Asarning mavzu va obrazlar tizimi haqida nimalarni bilasiz?
96	"Muhabbatnoma"ning badiiy xususiyatlari haqida gapiring
97	Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
98	Alisher Navoiy ijodining jahon va o'zbek adabiyotshunoslikda o'rganilishi haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
99	Navoiyning qaysi ilmiy asari fors-tojik tilida yozilgan?
100	Navoiyning qaysi asarida padarkush o'g'il obrazi berilgan?
101	Navoiyning "Xamsa"si dostonlardan qaysi birida Samarqand va Hirotning barpo qilinishi tilga olingan?
102	Navoiy qaysi asarida Firdavsiy va Nizomiyalar 30 yil yozgan asarni 30 oyda yozishga o'zida badiiy quvvat sezayotganini aytadi?
103	Bahrom tarixiy shaxs sifatida qaysi sulolaga mansub?
104	"Xazoyinul ma'oniy"da nechta ruboij keltirilgan?
105	Navoiyning xafif baxrida yaratilgan dostonini amiqlang
106	Navoiyning xajman eng katta dostonini ko'rsating
107	Quyidagi bayt Navoiyning qaysi dostonidan olingan? Men xastaki, bu raqamni chektim Tahriri uchun qalamni chektim
108	Quyidagi she'ming janrini aniqlang Jahon ganjig'a shox erur ajdaxo Ki, o'tlar sochar kaxri xangomida Aning komi birla tirlimak erur Maosh aylamak ajdaxo komida.
109	G'arb olamiga dastlab Navoiyning qaysi asari ma'lum bo'lgan? Qaysi asarida Navoiy o'zingin turkiy tilda yozgan asarlari ro'yxatini keltiradi
110	Navoiy qaysi janrn "turk shuarosining xossasi" deb ataydi?
111	Navoiyning qaysi asari Jomiy qalamiga mansub "Nafaxot ul-uns" asarining erkin tarjimasi hisoblanadi?
112	Navoiyning faqat maktublardan iborat asari?
113	Devoni Foniy'da jami nechta she'r bor?
114	Navoiy g'azalda uch buyuk ustoz sifatida kimlarni tilga oladi?
115	Navoiy "Majolisun nafois"da kimmi "malik ul-kalom" deb atagan?
116	Navoiyning turkiy tilda yaratilmagan asarlari nomini keltiring.
117	Navoiyning devonlaridan biriga tavsif bering.
118	Navoiyning ijodiy tarjima asosida yaratilgan asarlari haqida ma'lumot bering.
119	Navoiyshunos olimlardan kimlarni bilasiz?
120	Navoiyning diniy asarlaridan biriga tavsif bering
121	Quyidagi bayt Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostonidan olingan: Yo rab, eshigingda ul gadomen, Kim boshtin-ayokkacha xatomen.
122	Jomiy "Xamsa"sin'i tashkil kiluvchi dostonlarni sanang

123	Navoiy "Majolis un-nafois"da qaysi turkigo'y shoirlar haqida ma'lumot beradi? Sa'diy Sherioziyning "Guliston" asari. Uning Sharq adabiyotida tutgan o'rni
124	Xamsanavislardan kimlar Bahrom mavzusi bilan bog'lik dostonlarning nomlarini keltiring?
125	Quyidagi bayt Navoiyning qaysi dostonidan olingan? Ey ishq, g'arib kimiyosen Bal oyinai jahonnamosen
126	Saddi Iskandariy" dostonidagi tarixiy shaxslarni sanang
127	Zargar Zayd Zahhob haqidagi hikoyat "Sab'ai sayyor"dag'i nechanchi hikoyat hisoblanadi?
128	Bobur gazallarida hasbu hol
129	Bobur lirkasida she'riy san'atlarining qo'llanilishi
130	Bobur devonlari va ularning umumiy va farqli jihatlari tahlili
131	5.Bobur ruboilyaridagi o'ziga xoslik
132	Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari
133	Boburnoma" asarining o'rganilishi
134	Xojaning "Miftahul adl" va "Gulzo" asarları
135	Mashrab she'riyatining g'oyaviy - badiiy xususiyatlari
136	Sofi O lloyor hayoti va ijodiy merosi
137	Ogahiyning tarixchi va tarjimon sifatidagi faoliyati
138	Ogahiyning tarjimonlik faoliyati
139	Qo'qon adabiy muhitni
140	Qo'qon adabiy muhitni va ijtimoiy - siyosiy vaziyat
141	Amir Umarxon adabiyot homisi sifatida
142	Huvaydo ijodi. "Rohati dil" dostoni
143	Uvaysiy adabiy merosi
144	Uvaysiy lirkasining o'ziga xos jihatlari.
145	So'fi Olloyorning tasavvufiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
146	Masrab she'riyatida ishq talqini
147	"Zarbulmasal" asarining o'ziga xos syujetni va kompozitsiyasi
148	"Zarbulmasal" asarini tahvil qiling va uning badiiyati haqida gapiring
149	"Boburnoma" asarida muallif shaxsi, asarda tarixiy shaxslar tasviri
150	Nodira adabiy merosi
151	"Miftahul adl" asari kompozitsiyasi va mavzusi
152	"Qissayı Mashrab" asari haqida nimalarni bilasiz?
153	Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Lutfiying ijodiy faoliyati
154	Lutfiy va Navoiy. Lutfiy lirkasi, janr xususiyatlari va mavzu ko'lами. Lutfiy lirkasida ma'shuqa, zohid, raqib timsolllari talqini.
155	Navoiy "Majolis un-nafois"da Husaynij haqida.
156	"Xusrav va SHirin" Qutb tarjimasida
157	"Yusuf va Zulayho" turkumidagi dostonlar
158	Mashrab lirkasida ijtimoiy norozilik motivlari
160	Mashrab g'azallarida dunyoning o'ziga xos badiiy-falsafiy idrok etilishi
161	Xuvaydo g'azallarida axloq-odob, falsafiy va ma'nnaviy komillik mezonlarining badiiy ifodasi.
162	Gulxaniy masallarining ba'zi bir g'oyaviy-tematik xususiyatlari
163	Nodira g'azaliyotida lirk qahramon obrazi
164	Ogahiy lirkasida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va tabiat tasviri.

## O'ZBEK TILI FANDAN IMTIHON SAVOLLARI

1.Turdosh otlar.

2. *Bahoroy juda go'zal,*

*Hamma fasldan o'zar.*

*Gulchechakdan libosi,*

*Yogimlidir havosi:*

She'rдagi sifatlarni ajrating va ularni tahlil qiling.

1.Shakldosh so'zlar va paronim so'zlar.

2.*Saqlay desang o'zingni, yomondan yum ko'zingni.* Gapdag'i otlashgan so'zni toping va tahlil qiling.

1.Ma'nodosh so'zlar va zid ma'noli so'zlar.

2.*Bugunga kelib ekologik muammo hayotimizning eng dolzARB masalasiga aylandi.* Gapdag'i aniqlovchilarni belgilang va ularni izohlang.

1.Sifat darajalari.

2.*Tarbiyachi o'rta va katta guruh bolalariga doston haqida so'y lardi.* Gapdag'i to'ldiruvchi vazifasida kelgan bo'laklarni aniqlang va izohlang.

1. Fe'lning o'tgan zamон shakkлari.

2. *Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib. Oz so'zla, ko'p tingla.* Misollarda kelgan zid ma'noli so'zlarini aniqlang va tahlil qiling.

1. Kelishik shakkлari.

2. *Allaqayda bulbul to'lib-toshib kuylaydi.* Gapdag'i fe'llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1. Tartib son va uning imlosi.

2. *Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'kar chiroyi.* So'zlar tarkibida kelgan qo'shimchalarni tahlil qiling.

1.Sifat darajalari.

2. *Boychechak Qo'zivoyning qo'liga tegishi bilan Ilontepa tomonga yugurdi.* Ajratilgan so'zlarning nima uchun bosh harflar bilan yozilganini tushuntiring.

1.Ma'nodosh so'zlar

2. *Farg'onada bizning Oltiariqdan tashqari Uchariq, Beshariq, Qo'sharioq, Oqarioq, Soyarioq singari joyolar ko'p.* Gapdag'i juft otlarni aniqlang va ularni izohlang.

1. Atoqli otlar.

2. *U bunday jur'atni va hayotiy tasavvurni eng avvalo ota-onasidan olishi kerak edi.* Ko'rsatish olmoshini toping va uning tarkibidagi tovush o'zgarishini tushuntiring.

1.Zid ma'noli so'zlar

2. *Men xalq oldida sizning iltimosingizga shunday javob bermogqa majbur bo'ldim.* Gapdag'i kishilik olmoshlarni toping va ular gapda grammatik jihatdan qaysi so'zlar bilan birikib kelayotganini aniqlang.

1.Son va uning turlari.

2. *Biz kirgan xona dadam ishlaydigan hujradan ham tor, qorong'iroy ekan.* Gapdag'i sifatlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan, tushuntirib bering.

1.Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.

2. *O'zini hurmat qilmagan odamdan yaxshilik kutma.* Gapda qatnashgan olmoshni toping va uning tarkibida qanday qo'shimchalar borligini izohlang.

1.Ko'makchilar.

2. *Qurvonbibi fotiha to'yidan keyin biroz o'ziga kelgan edi.* Gapda qatnashgan ravishni aniqlang va uning ma'no turini izohlab bering.

1.Bog'lovchilar.

2. *Har bir inson o'z baxti uchun kurashadi.* Gapda qatnashgan olmoshlarni toping va ularning ma'no turlarini aniqlang.

1.Yuklamalar.

2. *Har bir so'zning so'zning o'z o'rni bor, har bir ishning o'z mavridi.* Ushbu gapda ma'no jihatdan qaysi turdag'i olmoshlarni qatnashgan, ularni aniqlang.

1.So'z birikmasi.

2. *Hasil-huzul' bilan birpasda allaqancha piyozni qanorlargaga joyladik.* Gapda qatnashgan olmoshni toping va uning qanday hosil bo'lganini izohlang.

1.Tub va yasama sifatlar.

2. Ra'noning yerga qaragan ko'zi sekingina Anvarga ko'tarilib, yana yerga og'di. Gapda qatnashgan fe'llarni toping va ularning vazifa shakllarini tushuntirib bering.

1.Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

2. Ahyon-ahyonda polizdan qovunlarning tars-turs yorilgani eshitilyapti. Gapdag'i juft va takror so'zlarni aniqlang hamda ularning qaysi so'z turkumiiga oidligini tushuntirib bering.

1.Olmosh va uning turlari.

2. Do'stlar dilini ranjitish dushmanni murodga yetkazishdir. Gapdag'i zid ma'noli so'zlarni aniqlang va ularning tarkibidagi qo'shimchalarni izohlang.

1.Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.

2.O'zingni o'zingga maqtagandan qo'rq. Gapda qatnashgan fe'llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.Ot so'z turkumi: turdosh va atoqli otlar.

2.Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga. Gapdag'i yordamchi so'zlarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1. Kishilik olmoshlari.

2. Ilm urug'lari sochilsa, elga baraka beradi. Gapdag'i fe'llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.Fe'l nisbatlari.

2.Osmonda yulduzlar kul' bosgan cho'g'dek miltillaydi. Gapdag'i otlarni aniqlang va ularning shakllarini izohlang.

1. Ko'rsatish olmoshlari

2. Hosidan bo'shab ko'krigiga shamol tekkan kuzgi dalalarda ajoyib fayz bor. Gapdag'i fe'llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1 . So'roq olmoshlari.

2. Uyuziga belbog'ini tashlab, qo'rpa chaga cho'zildi. Gapdag'i otlarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.So'z tarkibi: asos va qo'shimchalar.

2.Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Gap bo'laklarini aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.Qo'shimchalar va ularning turlari.

2. Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'iday asravmiz. Gapda qanday olmosh turlari qatnashgan va ular qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan.

1.Fe'lning zamon shakllari.

2.Yurtimizni obod qilish uchun astoydil harakat qilmoqdamiz. Gapdag'i ravishni toping va qanday gap bo'lagi vazifasida kelganini aniqlang.

1.Ko'makchilar.

2.Qaerda ahillik bo'lsa, o'sha yerga qayg'u yaqin kelolmas. Ushbu gapni tuzilishiga ko'ra qanday gap turi ekanini izohlab bering.

1.Fe'lning mayl shakllari.

2.Sen o'zingni er bilsang, o'zgani sher bil. Gapdag'i olmoshlarni aniqlang va ma'no turlarini izohlang.

1.Bog'lovchilar.

2.Tez-tez kitob o'qib turilsa, fikr ravshanlashadi. Berilgan gapni qaysi turdag'i gaplar sirasiga kirishini aniqlang va tushuntiring.

1.Kelishik shakllari.

2.Yo'lning o'n besh chaqirimchasi huvullagan dalalardan o'tadi. Gapda ishtirok etgan sonlarni aniqlang va tahlil qiling.

1.Yuklamalar.

2.Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligidagi katta e'tibor berilmogda. Gapdag'i yasama so'zlarni aniqlang va ularning yasalishini izohlab bering.

1.So'z birikmasida so'zlarning o'zaro birikish usullari.

2.Endigina ko'tarilib kelayotgan oy sarg'ish nurlar sohib, tun qo'ynda mudrayotgan pastqam uylarning tomlarini, daraxtlarning yalang'och novdalarini yoritib turardi. Gapdag'i tinish belgilarining qo'llanish sabablarini tushuntiring.

1.Tub va yasama sifatlar.

2. "Odamlar sizni qattiy hurmat qilishadi, opa", – dedi kamol astoydil kuyunib. Ushbu gapni tuzilishiga ko'ra qanday gap turi ekanini aniqlang va izohlab bering.

1.Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

2.Tog'ga yetgach, qo'yлarni o'z holiga tashlab qo'ydi. Gapdag'i ravishdoshlarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.Olmosh va uning turlari.

2.Doirani olgach, chalgani odam izlab ketdi. Gapdag'i ravishdoshlarni aniqlang va ularning ma'no turlarini izohlang.

1.Qo'shma gap va uning turlari.

2.Tepalikdan o'tgach, chavandozlar birin-ketin orqada qola boshladi. Gapdag'i juft so'zlarni aniqlang va qaysi turkumga oidligini tushuntirib bering.

1.Egalik shakllari va ularning imlosi.

2.Xola, ukam qani, olib ketgani keldim. Gapdag'i tinish belgilaringning qo'llanish sabablarini tushuntirib bering.

1.Atoqli otlar va ularning imlosi.

2.Aka-uka maslahatlashib, tong otguncha shu yerda qolishga qaror qilishdi. Gapdag'i yasama fe'llarni aniqlang va ularni izohlang.

1.Qo'shimchalar tasnifi.

2.Yosh Farhodning sikri quyosh kabi yorug', lekin ko'nglidagi ravshanlik undan ham ortiq. Gapdag'i yordamchi so'zlarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.So'z yasovchi qo'shimchalar.

2.Birovning aybini senga aytgan sening aybingni ham birovga aytadi. Gapdag'i fe'llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.Undov so'zlar.

2.U turmushidan, o'tgan umridan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmas edi. Gapdag'i otlarning grammatik shakllarini izohlang.

1.Taqlid so'zlar.

2.Humoyun va Hindol ammalariga yelkalarini berib ko'rishar ekanlar, yosh ayollar ularga bosh egib ta'zim qildilar. Gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang va tushuntiring.

## SUXBAT IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ikkinchи mutaxasislar uchun suxbat 5 baholik tizimda baholanadi. Ikkinchи mutaxasislar uchun suxbat kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga to'rttadan nazariy savol kiritiladi.

Suhbat asosidagi imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 5 («o'lo») baho qo'yiladi:**

-barcha savollarga te'liq javob bersa;

-xatolarga yo'll qo'ymasa;

-javobi ilmiy va mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lsa;

-fikrlar asosli va faktik ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa;

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 4 («yaxshio») baho qo'yiladi:**

to'rtta savolga javob berish jarayonida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yan bo'lsa;

-ayrim juz'iy noaniqliklarga yo'l qo'yan bo'lsa;

-o'z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ysa;

-bildirilgan fikrlar faktik ma'lumotlarga asoslananib berilsa;

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 3 («o'rta») baho qo'yiladi:**

to'rtta savolga javob berish jarayonida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yan bo'lsa;

-ayrim juz'iy noaniqliklarga yo'l qo'yan bo'lsa;

-o'z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ysa;

-fikrlar asosli , lekin faktik ma'lumotlarga asoslanmagan bo'lsa;

**Quyidagi holatlarda abituriyentga 2 («qoniqarsiz») baho qo'yiladi:**

-barcha savolga ham to'g'ri javob bera olmasa;

-barcha savollarga berilgan javoblar noto'g'ri va assossiz bo'lsa;

suhbat asosidagi imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Suhbat asosidagi imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

«Filologiya tillarni o'qitish: o'zbek tili» ta'lim yo'nalishi bo'yicha suhbat asosidagi imtihon komissiyasi tarkibi odatda ueh nafar a'zodan kam bo'lмаган holda tashkil etiladi.

Suhbat asosidagi imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

« Filologiya tillarni o'qitish: o'zbek tili» ta'lim yo'nalishi bo'yicha suhbat asosidagi imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

### Appelatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelatsiya komissiyasi suxbat asosida o'tkazilgan imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent suxbat imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida appellatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Appelatsiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

## Foydalaniadigan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: O'zbekiston, 2000.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvchi, 2005.
3. Xalizhev V.YE. Teoriya literaturo'. Uchebnik. - M.: Vo'sshaya shkola, 1999.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi O'quv qo'llanma. T.: 2006.
5. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
6. Orzibekov R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi O'quv qo'llanma. T.: "Adabiyot jamg'armasi", 2006
7. Sirojiddinov Sh. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – T.: Yangi asr avlod, 2011.
8. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari G' Majmua. (1-2-jiddar) Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005, 2007.
9. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). O'quv qo'llanma. D.Yusupova.– T.: Akademnashr, 2013.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimiz mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2016.
4. Abdulla Sher. Estetika. – T.: "O'zbekiston", 2014.
5. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlod. 2004.
6. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – T.: "Mumtoz so'z", 2013.
7. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T.: Akademnashr, 2015.
8. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. - T.: «Zarqalam», 2006.
9. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – T.: "Akademnashr". 2014.
10. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
11. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006.
12. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
13. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboyev talqinida). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
14. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T.: Fan, 2008.
15. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. – T.: "Turon-Iqbol", 2011.
16. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999
17. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T.: Akademnashr, 2015.
18. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006.
19. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015
20. Adabiyot nazariyasi.- 2 tomlik.- T., 1978, 1979
21. Iglton T. Teoriya literaturo'. Vvedeniye.- M., 2010
22. Uellek R., Uorren O. Teoriya literaturo'.- M.: Progress, 1978
23. Teoriya literaturo'. Pod red. N.D.Tamarchenko. – M.: Akademia, 2004.

24. Kvyatkovskiy A.K. Poeticheskiy slovar.- M., 1964

25. Literaturno'y ensiklopedicheskiy slovar.- M., 1987

26. Quronov D. va Adabiyotshunoslik lug'ati.- T.: Akademashr, 2010.

### Internet saytlari:

1. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
2. [www.litera.ru](http://www.litera.ru)
3. [www.philologs.narod.ru](http://www.philologs.narod.ru)
4. [www.zio.com](http://www.zio.com) kutubxonasi.
5. [www.ZioNet](http://www.ZioNet)
6. [www.kh-davron](http://www.kh-davron) kutubxonasi